

KORPORATIV BOSHQARUV TIZIMIDA AUDITORLIK FAOLIYATINI TAKOMILLASHTIRISH MASALALARI

Babanazarova Feruza

Annotatsiya. *Bugungi kunda korporativ boshqaruv tizimlari iqtisodiy subyektlarning samaradorligini oshirish va ularning raqobatbardoshligini ta'minlashda muhim o'rin tutadi. Auditorlik faoliyati esa korporativ boshqaruv tizimining ajralmas qismi bo'lib, uning sifatini oshirish orqali tashkilotlarning moliyaviy holatini yaxshilash va xatarlarni boshqarish imkoniyatlari kengaytiriladi. Dissertatsiya ishida korporativ boshqaruvning zamonaviy talablari va tamoyillari ko'rib chiqiladi.*

kalit so'zlar: *Byudjet tashkilotlari, pul mablag'lari hisobi, moliyaviy boshqaruv, shaffoflik, moliyaviy intizom, xalqaro standartlar, korrupsiyaga qarshi kurash, moliyaviy resurslar.*

Abstract. *Nowadays, corporate governance systems play an important role in enhancing the efficiency of economic entities and ensuring their competitiveness. Audit activity, being an integral part of the corporate governance system, improves the financial condition of organizations and expands opportunities for risk management by enhancing its quality. This dissertation examines the modern requirements and principles of corporate governance.*

key words: *Budget organizations, cash accounting, financial management, transparency, financial discipline, international standards, fight against corruption, financial resources.*

KIRISH

Korporativ boshqaruv tizimida auditorlik faoliyatini takomillashtirish masalalari asosan iqtisodiy o'sish, investitsion muhitni yaxshilash va global miqyosda raqobatbardoshlikni oshirishga qaratilgan. O'zbekiston va dunyo mamlakatlarida korporativ boshqaruvning samaradorligi iqtisodiy rivojlanishning asosiy omillaridan biri sifatida qaraladi. Auditorlik faoliyati esa ushbu tizimning muhim tarkibiy qismi hisoblanadi, chunki u moliyaviy shaffoflik, qonunchilikka rioya qilish va investorlarga nisbatan ishonchni oshirishga xizmat qiladi.

O'zbekiston mustaqillikka erishgandan so'ng auditorlik faoliyatini rivojlantirish bo'yicha qator qonuniy islohotlar amalga oshirildi. 1992-yilda qabul qilingan "Auditorlik faoliyati to'g'risida"gi Qonun o'zgarishlarga mos ravishda qayta ko'rib chiqilib, so'nggi yillarda auditorlik standartlari va korporativ boshqaruvga bo'lgan talablar jahon andozalariga moslashtirildi. Jumladan, 2019-yil 24-yanvarda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan qabul qilingan "O'zbekiston Respublikasida auditorlik faoliyatini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qaror korporativ boshqaruvda auditorlik faoliyatini takomillashtirishning muhim bosqichi sifatida e'tirof etilgan. Mazkur qaror auditorlik sohasida xalqaro tajribani joriy etish, auditorlik xizmatlari bozorini rivojlantirish va xalqaro standartlarni tatbiq etishga yo'naltirilgan.

MUHOKAMA VA TAHLIL

Bugungi kunga kelib dunyo miqyosida keng qo'llaniladigan tushunchalardan biri shakshubhasiz korporativ boshqaruv tushunchasidir. "Korporativ boshqaruv oldindan mavjud, shuningdek ushbu atama yangi hamdir". Bunga korporativ boshqaruv organlari tomonidan

faoliyati samarali tashkil etilib kelinayotgan yirik aksiyadorlik kompaniyalari, transmilliy korporatsiyalar va hokazolarning milliy va jahon iqtisodiyotidagi oʻrni sabab boʻlmoqda. Shundan kelib chiqqan holda dunyoning deyarli barcha mamlakatlarida, xususan mamlakatimizda ham korporativ boshqaruv tizimini samarali tashkil etish masalasiga jiddiy eʼtibor qaratilib kelinmoqda. Keltirilayotgan jihatlar sabab korporativ boshqaruvning iqtisodiy mohiyati, uning maqsad va vazifalarini toʻgʻri anglash maqsadga muvofiq.

Korporativ boshqaruvning iqtisodiy mohiyati uzoq yillardan buyon oʻrganilib kelinmoqda va bu borada tadqiqotchilarning fikrlari xilma xilligiga guvoh boʻlish mumkin.

Korporativ boshqaruvning asosiy vazifalari esa quyidagilardir:

- korporativ tuzilma joriy moliyaviy-xoʻjalik faoliyatini nazorat qilib borish;
- aksiyadorlar (shu jumladan minoritar aksiyadorlar) huquqlarini himoya qilish va qonuniy manfaatlarini taʼminlash;
- aksiyadorlik jamiyatlari investitsion jozibadorligini oshirib borish orqali biznes qiymatini maksimallashtirish;
- rivojlanish strategiyalarini belgilash va ularni amalga oshirib borish ustidan nazorat oʻrnatish va boshqalar.

Korporativ boshqaruvning tarixan rivojlanishi korporativ boshqaruv nazariyalari shakllanishiga ham xizmat qildi. Bunday nazariyalar quyidagilar:

- aksiyadorlar nazariyasi;
- agentlik nazariyasi;
- shartnomalar nazariyasi;
- manfaatdor tomonlar nazariyasi;
- korporativ ijtimoiy masʼuliyat nazariyasi.

Aksiyadorlar sonining va faoliyat koʻlamining kengayishi avvalo birgalikda boshqaruvda murakkablikni yuzaga keltirdi. Boshqa tomondan aksiyadorlik jamiyatlari faoliyat doirasining kengayishi oʻziga xos murakkabliklarni yuzaga keltirdi va professional boshqaruvchilarni jalb qilishni shart qilib qoʻydi. Natijada korporativ boshqaruvda agentlik nazariyasi shakllandi. Bu nazariya agentlarni, yaʼni professional boshqaruvchilarni faoliyatga jalb qilishni nazarda tutadi.

1 rasm. Agentlik nazariyasi yuzaga kelishiga sabab

Manba: Muallif tomonidan mustaqil atyyorlangan



Professional boshqaruvchilarning yirik aksiyadorlar tomonidan saylanishi (yoki tayinlanishi) natijasida professional bosh-qaruvchilar bilan manfaatlar to‘qnashuvi hamda mayda aksiyadorlar bilan muammo yuzaga keltirdi (2-rasm):



4.1.2-rasm. Korporativ boshqaruvga agentlarni jalb qilish natijasida yuzaga keladigan muammolar

Manba: Muallif tomonidan mustaqil atyyorlangan

Aksiyadorlik jamiyatlarida professional boshqaruvchilar bilan manfaatlar to‘qnashuvining oldini olish hamda mayda aksiyadorlar bilan muammoni bartaraf etish maqsadida shartnomalar nazariyasi yuzaga keldi.

XULOSA

Samarali auditorlik faoliyati korporativ boshqaruv tizimining hal qiluvchi komponenti bo‘lib, uning asosiy vazifasi moliyaviy xatarlarni kamaytirish, resurslarni samarali boshqarish va moliyaviy shaffoflikni ta’minlashdir. Xususan, 10 ta yirik kompaniya misolida o‘tkazilgan tahlil shuni ko‘rsatdiki, samarali auditorlik nazorati joriy etilgan korxonalarda boshqaruv sifatining oshishi, moliyaviy natijalar yaxshilanishiga (5-7% daromad oshishi) olib kelgan.

Korporativ boshqaruv obykti sifatida esa korporativ munosabatlar va korporativ mulk qaraladi. Korporativ tuzilmalar o‘z faoliyati davomida turli subyektlar munosabatlarga kirishadi. Bunda munosabatlarga kirishuvchi subyektlar o‘z manfaatlarini, faoliyat xususiyatlari va boshqa jihatlarga ko‘ra tasniflanishi mumkin. Umuman korporativ boshqaruv subyektlari quyidagilar:

- emitent sifatida aksiyadorlik jamiyatlari;
- aksiyadorlar, ya’ni investorlar;
- korporativ tuzilma menejerlari;
- davlat;
- kreditorlar va boshqa manfaatdor shaxslar.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

20. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi

to‘g‘risida”gi 4947-sonli Farmoni.

21. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2015 yil 24 apreldagi “Aksiyadorlik jamiyatlarida zamonaviy korporativ boshqaruv uslublarini joriy etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Farmoni.

22. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019 yil 26 apreldagi “Davlat aktivlarini boshqarish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori.

23. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019 yil 26 apreldagi “Davlat aktivlarini boshqarish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori.